

**AXBOROT KOMPETENTSIYASINING BO'LAJAK TARBIYACHILAR
FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI.**

Begmuratova D.A.

GulDU tayanch doktoranti

e-mail: begmuratovadilnoza@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14053686>

Annotatsiya: Bo'lajak tarbiyachilar kelajakda, bolalarning o'sib borayotgan shaxsiyatini hayotga tayyorlashni, odob-ahloq me'yorlari va milliy, oilaviy, shaxsiy qadriyatlarni rivojlantirish, boshqalar bilan o'zaro munosabatga kirish, muloqot qilish bilan bog'liq vazifalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishni ta'minlash maqsadida ma'lum kompetentsiyaga ega bo'lishi kerakligini nazarda tutadi.

Kalit so'z: kompetentsiya, axborot kompetentsiyasi, axborot savodxonligi, motivatsiya.

Аннотация: Будущий педагог обязан готовить растущую личность ребенка к жизни, формировать нравственные нормы и национальные, семейные, личностные ценности, взаимодействовать с другими людьми, решать задачи, связанные с общением, предполагает наличие определенной компетентности, чтобы обеспечить ее. формирование необходимых способов деятельности.

Ключевые слова: компетентность, информационная компетентность, информационная грамотность, мотивация.

Abstract: Future educators are expected to have certain competencies in order to prepare the growing personality of children for life, develop moral standards and national, family, and personal values, and form the methods of activity necessary to solve tasks related to interacting with others and communicating.

Keywords: competence, information competence, information literacy, motivation.

Maktabgacha ta'lim tizimining faoliyatini samaradorligini oshirish o'z navbatida uning moddiy-texnika bazasiga, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasiga, ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim dasturlari va ilmiy asoslangan nazariyadan foydalanish, bolalarni har tomonlama rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitga bog'liqligini inobatga olgan holda 2016-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori imzolandi [1]. Buning natijasida muqobil dasturlarni ishlab



chiqish va ularni amaliyotga joriy etish orqali maktabgacha ta'lim va bolalarni maktabga tayyorlash sifati tubdan yaxshilandi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni inobatga olgan holda, tizimdagi pedagoglarni kasbiy standartlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu masala "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonunda o'z aksini topdi. Jumladan Qonunning 42-moddasida muhim jihatlaridan biri – "Pedagogning kasbiy standarti" keltirib o'tilgan [2]. Unga ko'ra standartni qo'llanilishi, pedagogning shahsiy sifatlariga nisbatan uning bilimlari, mahorati va ko'nikmalaridan ajralmas bo'lgan talablarni belgiladi. Pedagogning malaka toifasi ham aynan mana shu standartga muvofiq berilishi ushbu modda bilan mustahkamlab qo'yildi.

Talaba kelajakda, bolalarning o'sib borayotgan shaxsiyatini hayotga tayyorlashni, odob-ahloq me'yorlari va milliy, oilaviy, shaxsiy qadriyatlarni rivojlantirish, boshqalar bilan o'zaro munosabatga kirish, muloqot qilish bilan bog'liq vazifalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishni ta'minlash maqsadida ma'lum kompetentsiyaga ega bo'lishi kerakligini nazarda tutadi.

Kompetentsiyalar – bilim, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo'lgan motivatsiyaning uyg'unlashgan majmuini o'zida aks ettiradi. Kompetentli pedagog kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetentsiya nafaqat malaka, bilim va ko'nikmalarni, balki quyidagi qadriyatlar va axloqiy fazilatlardan iborat bo'lgan omillarni ham o'z ichiga oladi.

Bo'lajak tarbiyachi o'z kasbiy faoliyatida, bolaning o'ziga xosligidan kelib chiqib shakllanishida, erta davrning hal qiluvchi ahamiyatini hisobga olgan holda, uning rivojlanishi va tarbiyasiga yaxlit yondashishi lozimligi;

maktabgacha ta'limning asosiy maqsadlarini belgilash, rejalashtirish va rivojlanishda ta'limdagi integratsiyani ta'minlash;

ta'limning turli hil strategiyalaridan samarali foydalanish,

bolalarning yoshi, guruhi va individual ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratish;

bolalarning oilalari bilan mustahkam hamkorlik qilish, ota-onalarni maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatiga jalb qilish orqali hamkorlikdagi qo'shma qarorlar qabul qilish kabi kompetentsiyalarga ega bo'lishi zarurligini belgilaydi.





Bo'lajak tarbiyachilarning axborot kompetentsiyalari masalasi, ilmiy adabiyot sahifalarida tez-tez tahlil qilinmoqda. Ammo, axborot jamiyatining tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi, axborot kompetentsiyasini odiygina qilib kompyuter savodxonligi bilan bog'lash o'rinli emasligini, balki ushbu masalani chuqur va atroflicha tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Kompetentsiyani aniqlashda kreativ yondashuvga tayanish mumkin. Oliy ma'lumotli talabanning kompetentsiyasini – tarbiyachilik kasbiy va ijtimoiy muhitdagi mehnat amaliyotida, shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy ahamiyatini anglagan holda, uni doimiy yangilab borgan tarzda shaxsiy fazilatlarini (bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy fazilat va boshqalar) ijodiy (maxsuldor) faoliyatida amalga oshirishiga harakati va qodirligi (tayyorligi) deb ta'riflash mumkin.

Axborot kompetentsiyasi, pedagogikaning zamonaviy rivojlanishi davrida o'ziga xos keng va aniqlik kiritish lozim bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Ba'zi tadqiqotchilar "axborot kompetentsiya"sini, tarkibiga favqulodda vaziyatlarda texnik vositalardan foydalangan holda printsipial jihatdan yangi qarorlarni qabul qila olish, inson tomonidan axborotlarni mustaqil va faol qayta ishlay olish kiradigan "yangi savodxonlik" deb aniqlik kiritishmoqda [3; 32 b].

Tadqiqotchilar axborot kompetentsiyasiga, faoliyatning turli jabhalarida, optimal qarorlarni qabul qilish, faraz qilish va amalga oshirishga yordam beruvchi, axborotni tanlab oluvchi, o'zlashtiruvchi, qayta ishlovchi, transformatsiya qiluvchi jarayonlarni o'zida mujassam etgan bilimlarning alohida domeniga xos turdagi "shaxsni integrativ sifatlari" deb baho berishgan [4] bo'lsa, boshqa bir tadqiqotchilar "Axborot kompetentsiyalari quyidagi imkoniyatlar va ko'nikmalarni belgilovchi individual faoliyat qobiliyatlari va sifatlarini: mustaqil ravishda axborotni izlash, to'plash, tahlil qilish, taqdim etish, uzatish va boshqalarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi" [5]. Ayrim tadqiqotchilar bo'lsa, o'z ishlarida tarbiyachining axborot kompetentsiyasini, yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda xolatga to'g'ri baho beruvchi, o'zining kasbiy-pedagogik faoliyatida samarali qarorlar chiqara oluvchi alohida turdagi bilimlar jamlamasi deb ko'rsatishadi.

Pedagog olimi N.V.Topilina, tarbiyachining axborot kompetentsiyasini, kasbiy-pedagogik faoliyati davomida samarali qarorlar qabul qilishga yordam beruvchi maxsus bilimlar jamlamasi deb ta'riflab, albatta bularning barchasi ta'lim jarayonida axborot va Internet-texnologiyalaridan xabardorlik va foydalana olish darajasiga bog'liqligini uqtirib o'tadi [7].

A.A.Temberbekova axborot kompetentsiyani shakllanishi deganda, maxsus tashkillashtirilgan va maqsadga yo'naltirilgan tashhis jarayoni, loyihalash,



amaliyotda qo'llash, va monitoring qila olish; tarbiyachining axborot faoliyati va axborot kommunikatsiyasi, axborot motivatsiyasida turli resurslarni ishtiroki; tarbiyachining kasbiy kompetentligining yaxlit integrativligini tashkil etuvchi jarayon degan fikrni ilgari suradi [6;282-b].

Talabaning axborot bilan ishlash kompetentsiyalari kompyuter texnikalar, ta'limga oid adabiyotlarning elektron variantlari, o'qitish dasturlari, ijodiy xarakterdagi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishni nazarda tutadi. Talaba, kelgusida guruhlardagi tarbiyalanuvchilarni individual jihatlarini, motivatsiyalari, yosh va psixologik xususiyatlaridan qat'iy nazar to'g'ri farqlash uchun zarur tayyorgarliklarga ega bo'lishi kerak.

Bo'lajak tarbiyachilarning axborot bilan ishlash kompetentsiyalarini tuzilishi va mazmunining jihatlarini ko'rib chiqqan holda, uni axborotni har qanday shakllari bilan samarali ishlashda o'zida bilimlar, ko'nikma, malakalarni umumiyligini ifodalovchi, o'zini axborot muhitidagi o'rnini biladigan, axborot resurslaridan foydalanish va yaratish bilan bog'liq bo'lgan normalar to'plami, qiymatlari sifatida, kasbiy faoliyatini reproduktiv va ijodiy darajada bajaradigan inson kompetentsiyalari orasidagi muhimlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2707-сон Қарори.
2. Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Қонуни. ЎРҚ-595-сон. - Т.: 2019 й.
3. Паршукова Г.Б. Информационная компетентность личности. Диагностика и формирование: монография/ НГТУ. — Новосибирск, 2006. – 253 с.
4. Содиқова. Ш.А. “Мактабгача педагогика”. Т.: “Тафаккур сарчашмалари”, 2013.
5. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари – Т.: 2006.
6. Темербекова А.А. Концептуальная модель формирования информационной компетентности учителя /А.А. Темербекова «Мир науки, культуры и образования»- № 2 - 2009.
7. Топилина Н.В. Информационный и компетентностный подходы в работе современного школьного учителя / Н.В.Топилина // Вестник Таганрогского института имени А.П.Чехова. – 2015.

